

ISSN 2091 – 5616

# AGRO ILM

№3 [100], 2024



# AGRO ILM

AGRAR-IQTISODIY,  
ILMIY-AMALIY  
JURNAL

«O'ZBEKISTON QISHLOQ  
VA SUV XO'JALIGI»  
jurnali ilmiy-ilovasi

Bosh muharrir:  
Tohir  
DOLIYEV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Qishloq va Suv xo'jaligi  
vazirliklari

Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2019-yil 10-yanvarda 0291-raqam bilan qayta ro'yxatga  
olingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya  
komissiyasi Rayosatining 2013-yil 30-dekabrdagi  
№201/3-soni qarori bilan qishloq xo'jaligi, texnika,  
veterinariya hamda 2015-yil 22-dekabrdagi  
219/5-tonli qarori bilan iqtisodiyot fanlari bo'yicha  
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

## TAHRIR HAY'ATI

Shuxrat OTAJONOV  
(Hay'at raisi)  
Maxfurat AMANOVA  
Sayfulla AXMEDOV  
Shuxrat BOBOMURODOV  
Qalandar BOBOBEKOV  
Asadullo DAMINOV  
Dilorom YORMATOVA  
Shuxrat JABBOROV  
Abdug'affor JURAYEV  
Abdirasuli IBRAGIMOV  
Odiljon IBRAGIMOV  
Uzakbay ISMAYLOV  
Baxodir ISROILOV

Sanoatxon ZOKIROVA  
Abdulla MADALIYEV  
Bunyod MAMARAXIMOV  
Abbosxon MA'RUPOV  
Shodmon NAMOZOV  
Rustam NIZOMOV  
Ruziboy NORMAXMATOV  
Toshtemir OSTONAQULOV  
A'zam RAVSHANOV  
Faxriddin RASULOV  
Shuxrat RIZAYEV  
Sobir SANAYEV  
Mas'ud SATTOROV  
Yelmurat TORENIYAZOV

Dilbar TUNGUSHOVA  
Abdusalam TO'XTAQO'ZIYEV  
To'lqin FARMONOV  
Baxodir XOLIQOV  
Do'stmuhammad XOLMIRZAYEV  
Norql XUSHMATOV  
Rashid HAKIMOV  
Feruza HASANOVA  
Akrom HOSHIMOV  
Erkin SHAPTAKOV  
Dilfuza EGAMBERDIYEVA  
Abdug'an ELMURODOV  
Shamsi ESANBAYEV  
Isrom QO'ZIYEV

2024-yil,  
3-son [100]

Bir yilda 6 marta  
chop etiladi.

Obuna indeksi –  
859

Jurnal 2007-yil  
avgustidan  
chiqa boshlagan.

Manzilimiz: 100004, Toshkent  
shahri, Shayxontohur tumani,  
A.Navoiy ko'chasi, 44-uy.

Tel.: +998 71 242-13-54,  
+998 71 249-13-54  
+998 90 946-22-42.

Veb sayt: qxjurnal.uz  
E-mail: qxjurnal@mail.ru  
Telegram: qxjurnal\_uz  
Facebook: qxjurnal

© «AGRO ILM» jurnali.

Bosmaxonaga topshirildi:

2024-yil 13-may.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8.  
Offset usulida ofset qog'oziga chop  
etildi. Hajmi 14 bosma taboq.  
Buyurtma № 7. Nusxasi 600 dona.

«NUR ZIYO NASHR» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.


Korxona manzili:

Toshkent shahri, Matbuotchilar  
ko'chasi, 32-uy.


Navbatchi muharrirlar – A.TAIROV  
Dizayner sahifalovchi – U.MAMAJONOV

Ko'chirib bosilgan maqolalarga «AGRO ILM» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi shart.  
Ko'chirmakashlik (plagiat) materiallar uchun muallif javobgar hisoblanadi.

Tok mevalarni himoya qilish mакетning o'лчамлари va tuzilishi 1- va 2- rasmlarda keltirilgan.



**1-rasm. Yon tomondan ko'rinishi va o'lchamlari**




**2-rasm. Ustki tomondan ko'rinishi va o'lchamlari.**

Yuqorida berilgan o'lchamlardan foydalanib biz himoya qoplamlarni yasab o'rnatishimiz mumkin.

Endi esa tok mevalarni himoya qilish qurilmasining 3D format-dagi ko'rinishi quyidagi 3-rasmda keltirilgan.

Ushbu rasmlardan ko'rishimiz mumkinki, toklar har tomonlama ventilyatsiya va yog'ingarchilikdan samarali himoyalangan.



**3-rasm. Tok mevalarni himoya qilish qurilmasining tashqi va ichki tomondan 3D ko'rinishi.**

#### Xulosa.

1.Kuz mavsumidagi yog'ingarchiliklarda tok mevalarni sifatli saqlash fermalar, kichik dexqon xo'jaliklar uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi.

2.Neylon qoplamlari, tok mevalarni himoya qilishda samarali usuldir. qoplamadan to'g'ri foydalanish tok mevalarini himoya qilish uchun samarali usul hisoblanadi.

3.Ushbu maqola fermerlar, uy sharoitida uzum ytishtiruvchi bog'bonlar va ilg'orlikni izlayotgan har qanday kishilar uchun qulay va foydali ma'lumotlar olib keladi.

Ikrom NURITOVA, dotsent,

Dinora SUYUNOVA, talaba,

Oqila ANVAROVA, talaba,

Maftuna MARDONOVA, talaba,

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti.

UO'T: 635.34:631.55:631.8

## OQBOSH KARAM HOSILDORLIGIGA TURLI FOSFOR SAQLOVCHI O'G'ITLARNING TA'SIRI

**Annotatsiya.** Samarqand viloyati tipik bo'z tuproqlar sharoitida turli fosfor saqlovchi o'g'itlarni tuproqqa ta'siri, oqbosh karam ekinining o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Turli fosfor saqlovchi o'g'itlar qo'llanilganda 712,6 – 730,6 s/ga hosil olingan, ular orasidagi bog'liqlik tig'iz bo'lganligi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tipik bo'z tuproq, oqbosh karam, hosil, korrelatsiya, regressiya.

**Аннотация.** Представлены сведения о влиянии различных фосфорсодержащих удобрений на почуеву, на рост, развитие, продуктивность и качество урожая капусты белокочанной в условиях типичных сероземов Самаркандской области. При использовании разных фосфорсодержащих удобрений получено 712,6 - 730,6 ц/га, причем связь между ними была тесной.

**Ключевые слова:** серозем типичный, капуста белокочанная, урожайность, корреляция, регрессия.

**Abstract.** Information on the effect of various phosphorus-retaining fertilizers on the soil, on the growth, development, yield and quality of the white cabbage crop in the conditions of the typical gray soils of the Samarkand region is presented. Different phosphorus-saving fertilizers were used, the yield was 712.6-730.6 s/ha, and the relationship between them was close.

**Key words:** typical gray soil, white cabbage, yield, correlation, regression.

**Kirish.** Karam (Brassica L.) — butguldoshlar oilasiga mansub, bir yillik sabzavot va yem-xashak ekini hisoblanadi. Karamning 35 ga yaqin turi bor. Dehqonchilikda ulardan oq boshli (bos o'raydigan oddiy) karam, qizil karam, savoy karami, bryussel karami, kolrabi, gulkaram, pekin karami dunyoning deyarli barcha mamlakatlarda ekiladi. Jahan dehqonchiligidagi karam eng muhim sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi. FAO ma'lumotlariga ko'ra, har yili karam ekiladigan maydonlar 2,4 million getktarni tashkil etib, 71,4 million tonnadan ortiq ishlab chiqariladi va o'rtacha hosildorlik 29,2 t/га. Karam yetishtirish bo'yicha dunyoda birinchiligi Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya va Rossiya Federatsiyasi mos ravishda keyingi o'rnlarda turadi, O'zbekiston Respublikasi

14-o'rinda bo'lib, 680640 tonna karam yetishtiradi, umumiy maydoni 12588 ga va o'rtacha hosildorlik 54,0 t/га [3, 5].

Samarqand viloyati tipik bo'z tuproqlar sharoitida turli fosfor saqlovchi o'g'itlar va ularning me'yordi oqbosh karamda 14,5 – 19,8 dona barg hosil bo'lishini ta'minlab, uning texnik yetilish davrini 2-4 kunga tezlashishi aniqlangan. Oqbosh karamning "F1 Sevirina" duragayidan nazorat variantida tegishlicha 270,5 s/га hosil olingan bo'lsa turli fosfor saqlovchi o'g'itlar va ularning me'yordi oshib borishi bilan o'rtacha 449,6 – 486,6 s/га hosil olinishini ta'minlangan. Oqbosh karam tarkibidagi quruq modda, umumiy qand miqdoriga ta'siri bo'yicha ham yuqorida qayd etilgan qonuniyatlar saqlanib qolgan. Sabzavot ekinlari mahsulotini

ekologik nuqtai nazardan baholanadigan sifat ko'rsatkich nitrat-larning miqdori karam boshida ham (300 mg / kg) ruxsat etilgan me'yordan kam bo'lishligi kuzatilgan [2, 6].

O'zbekistonning sharoitida oqbosh karamdan yuqori hosil olish uchun bo'z tuproqlar yerlarda gektariga - 150-200 kg azot, 100-150 kg fosfor hamda 75-100 kg kaliy o'tloq hamda o'tloq - botqoqli yerlarga 120-150 kg azot, 120-150 kg fosfor hamda 60-100 kg kaliy miqdorda mineral o'g'itlar solish tavsya etiladi [1, 4].

Karam tarkibida qandlar, organik kislotalar, vitaminlar (C, P, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, PP, K, E) va karotin, pantoten va folat kislotalar, yog', fermentlar, fitonsidlar, kaliy, kalsiy, yod, marganes, temir va boshqa element-larning tuzlari bor. Inson sog'lom bo'lishi uchun sabzavot, ayniqsa oqbosh karamdan har kuni iste'mol qilishi lozim. Tibbiy me'yordaga asosan har bir kishi yil davomida kamida 108 kg sabzavot, 19 kg poliz, 54 kg kartoshka mahsulotlari iste'mol qilishi talab etiladi.

Respublikamiz aholisini sabzavot, jumladan oqbosh karam bilan to'la ta'minlash, bir qismini chetga eksport qilish uchun undan yuqori va sifatlari hosil yetishtirish talab etiladi. Samarcand viloyati tipik bo'z tuproqlar sharoitida oqbosh va gulkaramning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga turli fosfor saqllovchi o'g'itlarning ta'sirini o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

**Tadqiqot meraillari va uslublari.** Dala tajribalari o'simlik-shunoslik va agrokimyo umum qabul qilingan standart uslublar asosida o'tkazilmoqda. Tajriba 6 variant 4 takrorlikda Samarcand viloyatining tipik bo'z tuproqlar sharoitida olib borilmoqda. Azotli o'g'itlar sifatida ammiakli selitra (34,6 % N), kaliyli o'g'itlardan kaliy xlor (56-60 % K<sub>2</sub>O), fosforli saqllovchi o'g'itlardan superfosfat (19-21 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>), NKFU (Nitrofos, 6-8 % N, 16 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>), Ps-agro (4-6 % N, 41-44 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>, 5-7 % SO<sub>3</sub>) va ammofos (11-12 % N, 46 % - P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) o'g'itlari tanlab olindi. Dala tajribasi tuprog'i qadimdan sug'orilib kelinayotgan tipik bo'z tuproqlar, mexanik tarkibiga ko'ra o'rta qumoq, harakatchan oziq moddalar bilan juda kam va kam ta'minlangan, mug'it rayeksiyasi kuchsiz ishqorii.

**Tahlil va natijalar.** Oqbosh karamni Buxarest F1 duragayi hosildorligiga turli fosforli o'g'itlarning ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadi, o'g'itsiz nazorat variantida o'rtacha 402,3 s/ga hosil olingan bo'lsa, N180K90 qo'llanilgan variantda 689,8 s/ga hosil olindi. Turli fosfor saqllovchi o'g'itlar 110 kg/ga qo'llanilganda hosildorlik 712,6 – 730,3 s/ga tashkil etdi. Bunda superfosfat va NKFU o'g'itlari hamda ammofos va


Ps-agro o'g'itlari bir xil me'yorda qo'llanilganda teng ahamiyatga ega bo'lganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

#### Oqbosh karamni Buxarest F1 duragayi hosildorligiga turli fosforli o'g'itlarning ta'siri (Samarcand tumani, Davronov Hasan agrosahovat f.x., 2022)

№	Variantlar	Takrorliklar bo'yicha hosildorlik				O'rtacha hosildorlik, s/ga	Qo'shimcha hosil, s/ga
		I	II	III	IV		
1	O'g'itsiz - nazorat	392,7	409,8	408,3	398,4	402,3	-
2	N180K90 - fon	698,5	688,5	688,7	683,5	689,8	287,5
3	Fon + Superfosfat 110	705,9	720,6	708,3	715,6	712,6	310,3
4	Fon +NKFU 110	722,5	709,7	715,3	710,5	714,5	312,2
5	Fon + Ps-agro 110	736,3	742,2	719,6	721,1	729,8	327,5
6	Fon +Ammofos 110	721,3	738,2	727,5	735,4	730,6	328,3
Sx, %						2,5	
EKIF <sub>05</sub> s/ga						14,8	

Qo'llanilgan o'g'itlar va oqbosh karam hosildorligi orasidagi bog'liqlik to'g'ri chiziqli y = ax + b regressiya tenglamasiga bo'y sungan holda korrelyatsiya koeffisiyenti r = 0,93 ga teng bo'lib, ular orasidagi bog'liqlik tig'iz bo'lganligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Qo'llanilgan o'g'itlar va oqbosh karam hosildorligi orasidagi bog'liqlik

**Xulosa.** Samarcand viloyati tipik bo'z tuproqlar sharoitida oqbosh karamning Buxarest F1 duragayidan yuqori va sifatlari hosil yetishtirishda N180K90 fonida fosfor saqllovchi (ammofos va Ps-agro) o'g'itlarini 110 kg/ga qo'llash tavsya etiladi. Qo'llanilgan o'g'itlar va oqbosh karam hosildorligi orasidagi bog'liqlik to'g'ri chiziqli y = ax + b regressiya tenglamasiga bo'y sungan holda korrelyatsiya koeffisiyenti r = 0,93 ga teng bo'lib, ular orasidagi bog'liqlik tig'iz ekanligi aniqlandi.

Dilshod ASLAMOV, tayanch doktorant,  
Mansur MASHRABOV, dotsent, q.x.f.d. (PhD),  
Alisher MAXMATMURODOV, q.x.f.d., dotsent,  
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti.

#### ADABIYOTLAR

- Sattarov J., Siddiqov S., Abdullayev S., Ergashev A., Xaidmuamedova Z., Kulmurodova Ya., Qosimov U., Akbarov N. Agrokimyo. –T: Cho'lpox, - 2011. – B. -180-184, - B. 159 – 348.
- Xayitov M.A., Mashrabov M.I., Abdullayeva S.F., Esirgapov N.O., Jiyanov S.A. Оқбуш карам ва пиёз етиштиришда фосфорли ўғитларнинг мақбул мөъёрлари // AGRO ILM, - №1. 2020.
- Иванюк Н.Ф. Способы выращивания, возраст и сроки высадки рассады капусты в Сибири / Н.Ф. Иванюк // Картофель и овощи. 2007. – № 3. – С. 17.
- Мусаев Б.С. Агрокимё. - Т. Ўқитувчи, 2001. – Б. 130 - 284.
- Пушкирев В.Г., Котов В.А. Урожайность капусты белокочанной при использовании гербицидов. // The scientific heritage – №58 (2021). –С. 17-19.
- Хайитов М.А., Машрабов М.И. Зарафшон водийси сугориладиган тупроқлари фосфат режими шаклланишининг илмий асослари. Тошкент, "Наврӯз" 2018. – 224 б.